XALQ DEPUTATLARI ANDIJON VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 14-may VII-8-107-1-0-K/25 Andijon viloyati

Viloyatda ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar)ni tasdiqlash toʻgʻrisida

Oʻzbekiston Respublikasining “Ichimlik suvi taʼminoti va oqova suvlarni chiqarish toʻgʻrisida”gi 2022-yil 22-iyuldagi OʻRQ-784-sonli Qonuni, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-sentabrdagi “Ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PF-6074-sonli Farmoni, 2022-yil 18-martdagi PQ-171-sonli hamda 2023-yil 23-oktyabrdagi PQ-343-son qarorlari, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 16-apreldagi 204-son qarori ijrosini taʼminlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi

QAROR QILADI:

1. “Andijon suv taʼminoti” AJdirektori D.Qoʻldashevning ichimlik suvi taʼminoti va oqova suv xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) yuzasidan taqdimoti maʼlumot uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda ichimlik suvi taʼminoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun taklif etilayotgan narxlar (tariflar) ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimining matbuot kotibi— axborot siyosati masalalari boʻyicha maslahatchisi R.Eshonov mazkur qaror rasmiy eʼlon qilinishi munosabati bilan ommaviy axborot vositalari hamda WWW.andijan.uz veb saytiga joylashtirilishini taʼminlasin.

4. Tasdiqlangan tariflar ommaviy axborot vositalarida eʼlon qilingandan keyin oʻn besh kun oʻtgach kuchga kirishi belgilansin.

5. Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2023-yil 19-sentabrdagi VI-53-179-1-0K/23-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari boʻyicha

doimiy komissiyasi (X.Omanov) hamda ijrosini ta'minlash viloyat hokimining o'rinbosari U.Jo'rayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  AXUNOV UKTAMJON
XXX

Xalq deputatlari Andijon viloyati
Kengashining
2025-yil 14-maydagi
VII-8-107-1-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Andijon viloyat suv ta'minoti va kanalizatsiya xizmatlari uchun amaldagi va taklif etilayotgan narxlar (tariflar)

Xizmat turi	**Amaldagi narx (tarif)** (so'm)	**Taklif etilayotgan narx (tarif)** (so'm)
Ichimlik suv yetkazib berish narxi		
Aholi uchun 1 m3	1500 (qqs siz)	1650 (qqs siz)
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	2400 (qqs siz)	2640 (qqs siz)
Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	3800 (qqs siz)	4180 (qqs siz)
Oqova suv xizmati narxi		
Aholi uchun 1 m3	1500 (qqs siz)	1650 (qqs siz)
Byudjet tashkilotlari uchun 1 m3	2400 (qqs siz)	2640 (qqs siz)
Ulgurji tashkilotlari uchun 1 m3	3200 (qqs siz)	3520 (qqs siz)